



## KLASSIK USLUBDAGI AYOLLAR MILLIY KO'YLAGI UCHUN MODEL VA GAZLAMA TANLASH TADQIQI

*Bazarova Saidaxon Rasuldjanovna*

*Andijon shahar 1-son texnikumi*

*Ishlab chiqarish ta'limi ustasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada klassik uslubdagi ayollar milliy ko'ylagini yaratishda model va gazlama tanlash masalalari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida milliy an'analar, estetik talablar hamda zamonaviy moda tendensiyalari uyg'unligi ko'rib chiqilgan. Klassik uslubdagi ko'ylaklar uchun mos siluet, konstruktiv yechimlar, bezak elementlari va rang tanlash mezonlari o'rganilgan. Shuningdek, gazlama turlarining fizik-mexanik xususiyatlari, gigiyenik ko'rsatkichlari hamda ularning kiyim sifatiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida ayollar milliy ko'ylagi uchun maqbul model va yuqori sifatli gazlama tanlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *klassik uslub, milliy ko'ylak, ayollar kiyimi, model tanlash, gazlama, dizayn, siluet, bezak elementlari, moda tendensiyalari, gigiyenik xususiyatlar, estetik talablar, konstruktiv yechimlar.*

Tikuvchilik va tikuv-trikotaj sanoatini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan ishlab chiqarilayotgan tayyor raqobatbardosh mahsulotlarning hajmi va turlarini kengaytirish, paxta va ipak xomashyosini yetishtirish va qayta ishlash samaradorligi va rentabelligini oshirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Eng avvalo, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish, tarmoqni boshqarishni tashkil etish, resurs va ishlab chiqarish quvvatlarining taqsimlanishi, kadrlar malakasining yuqori emasligi bilan bog'liq tizimli muammolarning mavjudligi paxta va ipak xom ashyosini yetishtirishning past rentabelligiga va uni qayta ishlashga, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilishning yetarli darajada emasligiga olib kelmoqda. Shuni inobatga olgan holda, mamlakatimizda mazkur sohani yanada rivojlantirishni



ta'minlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar izchil ro'yobga chiqarilmoqda. Xususan, O'zbekistonda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlangan. Ushbu hujjat bilan tikuvchilik sanoatini yanada isloh qilishning quyidagi muhim yo'nalishlari belgilandi, xususan:

– tikuvchilik sanoatining iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan to'qimachilik mahsulotlarining hajmi va sifatini oshirish;

- tikuvchilik sanoatining boshqaruv tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish;

Ayollar milliy ko'ylagini shakl saqlash xossalari tadqiqi asosida ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini takomillashtirish.

– tikuvchilik sanoati sohasida standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini

yanada takomillashtirish;

– tikuvchilik ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;

– tikuvchilik sanoatini rivojlantirishning klaster modelini amalga oshirish;

– logistika va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirish bilan o'zaro uzviy

bog'liqlikda xom ashyo resurslari taqsimotining va tashkil etilayotgan tarmoq

korxonalarini joylashuvining muvozanatini ta'minlash;

– ishlab chiqarish jarayoniga ilg'or innovatsiya texnologiyalari, nou -xau, dizaynerlik ishlanmalarini keng joriy etish, furnitura va aksessuarlarning zamonaviy namunalarini ishlab chiqarishni mahalliyashtirish;

– tikuvchilik sanoati uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish.

**Model ko'rinishi va asoslash.**



Tanlab olingan birinchi modelim ayollar yozgi mavsumiga mo'ljallangan. Tanlab olingan model yoz mavsumiga mo'jallangan bo'lib, yangi yaxlit bichilgan. Model tanaga o'rtacha yopishib turadi, belida belbog'i mavjud, modelimning old va ort bo'lagida joylangan bel vitochkalari yopiq qirqimli qilib tayyorlangan.

1-Rasm. 1- Model



Ikkinchi model ham milliy matodan ayollar klassik uslubdagi jaketi hisoblanib bahor fasliga mo'ljallangan. Old bo'lagi izma-tugma taqilmali qilib bichilgan, yoqasi klassik uslubdagi qaytarma yoqa. Yengi o'tqazma, qopqoqli qirqma cho'ntakli. Orqa bo'lagi o'rta chokli. Etak qismi 1 cm qilib bostirilgan. To'g'ri bichimli qilib tikilgan.

2-rasm. 2- Model.



Uchinchi model ham milliy matodan ayollar klassik uslubdagi ko'ylagi hisoblanib yoz fasllariga mo'ljallangan. Old va ort bo'lagi yaxlit bichilgan, yoqa o' miziga mag'iz tikilgan.

Yengi o'tqazma yangli qilib bichilgan yeng uchiga buklab 1 sm chok bilan bostirib tikilgan. Etak tomonga kengayib borgan.



### 3- Rasm. 3- Model.

#### **Gazlama tanlash va asoslash.**

Milliy gazlamalarni tarkibi, tuzilishi, pardoatlanishi jixatidan shoyi gazlamalar turlicha bo'ladi. Savdo preskuranti bo'yicha shoyi gazlamalar 8 ta guruxga bo'linadi. Har bir gruppa 6 ta kichik gruppadan iborat bo'ladi. SHoyi gazlamalar artikulini birinchi raqami gruppa nomerini, ya'ni gazlamaning tuzilishi va nimaga ishlatilishini bildiradi. SHoyi gazlamalar assortimenti 5 ta raqamli artikuldan iborat. Demak, ipakdan to'qilgan barcha gazlamalarda artikulning birinchi raqami 1, boshqa tolalar qo'shilgan ipaklardan to'qilgan gazlamalarda 2, sun'iy ipaklardan to'qilgan gazlamalarda 3, boshqa tolalar qo'shilgan sun'iy ipaklardan to'qilgan gazlamalarda 4, sintetik iplardan to'qilgan gazlamalarda 6 ta raqam bilan belgilanadi [9].

Ayollar milliy kiyimlari uchun tabiiy ipakdan tayyorlangan adras matosini tanladim. Ipak gazlamalar yo'g'onligi 1,5-2,3 teksli ingichka xom ipakdan , pishitilgan va baъzi gazlamalargina ipak kalava ipdan turli xildagi o'rilishlarda to'qiladi. Adras matosi o'zbek xalqining milliy matosi bo'lib, abr usulida ishlab chiqariladi. Abr usulida tanda ipini bo'yash texnikasi juda murakkab. 200-300m uzunlikda tanda ipi maxsus dastgoxda mayda tutam — «libit»larga taqsimlanadi. Gazlamaning zichligi va eniga binoan xar bir libitda iplar soni 40-60 gacha bo'ladi. Libitlar ikkitadan qo'shib, rom-dastgoxni ko'ndalang bruslariga o'raladi. Bruslar orasidagi masofa naqsh rapporti bilan bog'liq (1,4 - 2,25 m). Libitlar tashkil etgan yuzaga rassom-abrband ingichka yog'och bilan suvda eritilgan qora kuya yordamida vertikal o'qi bo'yicha naqshni yarmini ko'ndalang chiziqlar bilan belgilaydi. Usta trafaret, eskizlardan foydalanmaydi.

Naqshni rang-barang bo'lishi uchun tanda ipi ketma-ket paxta iplar bilan zaxiralanadi va ketma-ket bo'yaladi. Libitlar qaynoq bo'yoqda bir necha daqiqa qaynatiladi. Agar bir rapportni davomida libit tutami pushti, sariq, to'q qizil, yashil va oq rangga bo'yalsa, ular uch marta zaxiralanadi. Avval oq va pushti rang bo'ladigan joylari zaxiralanadi. Zaxiralangan tanda sariq bo'yoq eritmasiga solinib, ochiq joylari bo'yaladi, zaxiralangan joylariga esa bo'yoq sal kirib, ajoyib rangli



dog'larni xosil qiladi. Keyin qo'shimcha libitning barcha to'q qizil rangga bo'yaladigan joylaridan boshqa joylari zaxiralanadi. Keyin, libitni to'q qizil rangga bo'yalgan joylari zaxiralanadi va yashil rangga bo'yaladigan joy ochiladi. Bo'yash jarayoni boshida barcha joylari (oq va pushtidan tashqari) sariq rangga bo'yalgani uchun, yashil va to'q qizil rang sariq gruntovkaga yotadi va shu sababdan ranglarga chuqurlik va sof tonlik taassurotini beradi.

Tanlangan gazlamaning asosiy fizik-mexanik ko'rsatkichlari

2-jadval.

№	Gazlamaning	Gazlamaning turkumi	Gazlamaning narxi(so`m)	Gazlamaning eni	1 m <sup>2</sup> ogirligi	Tolali tarkibi		To`qilish usuli
						O`rish	Arqoq	
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1	Adras	zich, xom	15000 so`m	45 sm	120 gr	29% kalavai	71% paxta	Polotno

### Asbob uskuna tanlash va asoslash

Kurs ishida tanlangan modelim uchun zamonaviy tikuv korxonalarida ishlab chiqarilgan tikuv mashinalari bilan tanlab oldim. Bunday tikuv jixozlarini Vengriyaning "Pannoniya" firmasi qo'lda boshqariluvchi va to'shamani qirqib bo'laklarga bo'luvchi SS-529,CS-530 mashinalarini, yashirin chok bilan tikuvchi CS-761 va CS-790 mashinalarini, dazmollovchi CS-311U, CS-313, CS-394 presslarni hamda tugma tikuvchi va puxtalovchi CS-600, CS-652 yarim avtomatlarni ishlab chiqaradi.



Germaniyaning “Tekstima”, “Pfaff”, “Shtrobel”, “Dyurkopp”, “Adler”, “Shubert”, “Zinger” firmalari 8332, 8115, 8605, 8630, 91, 99, 267-703, 265-115203, 558, 204, 1381, 3116, 299U keng imkoniyatli, yo`rmlash, izma ochish, puxtalash, kashta tikish mashinalarini ishlab chiqaradilar.

Chexoslovakiyaning “Minerva” firmasi 811, 62-761, 335 sinf izma ochish va siniq chok bilan tikish yarim avtomatlarini va mashinalarini ishlab chiqaradi.

Italiyaning “Nekki”, “Rimol`di” firmalari keng imkoniyatli, tugma qadovchi va yo`rmllovchi 830-100, NAN-1441, NAN-1405, 829-7 sinf mashina va yarim avtomatlarini ishlab chiqarishadi.

Yaponiyaning “Djuki” firmasi uch ipli MO-367VT va to`rt ipli MO-816 zanjirli yo`rmlash mashinalarini ishlab chiqaradi.

## Ip bilan biriktirish operatsiyalari va tartibi

### 3.-jadval.

Chok turi	Konstruksiyasi	Qo`llash jarayoni	Baxyaqator turi	Asbob-uskuna va moslama nomi va
Biriktirma chok		Buyumni yelka va yon qirqimlarini	Bir chizikli ikki ipli mokisimon	DDL-8100N
Bukma		Buyum etagi	Uch ipli zanjirsimon	GK32500-1364/11
Bostirma		Qoplama cho`ntak ziyi	Ikki ipli bir chizikli	DDL-8100N
Ag`darma		Qoplama cho`ntak qirqimi	Ikki ipli bir chizikli	DDL-8100N
Mag`iz chok		Bo`yin o`mizi, yeng uchi qirqimlari	Ikki ipli ikki chizikli	DDL-8100N
Tikib yo`rmash		Kardigan yon, yelka, yeng qirqimlari	To`rt ipli zanjirsimon	MO-6714S-BE6-44H-G39/Q141

**Xulosa.**



Maqola mavzu asosida dastlab bugungi kunda Respublikamizda tikuvchilik ishlab chiqarish korxonalarini rivojlanishi ishlab chiqarishi yaxshilash, zamonaviy tikuv korxonalarini barpo etish, ishlab chiqarishni yaxshilash, ichki bozorni sifatli tikuv buyumlari bilan to'ldirish, tikuvchilik sanoatida bu vazifalarni bajarish uchun avvalo texnologiyani takomillashtirish balab qilinadi. Yangi kam operatsiyali texnologiyalar yaratish tikuvchilik buyumlariga ishlov berishni takomillashtirishdagi istiqbolli yo'nalish hisoblanishini o'rgandim. Milliy matodan ayollar klassik bichimdagi kiyimi detallariga texnologik ishlov berish, mavzusida, modeldagi mayda detallariga dastlabki ishlov berish ishlarini amalda mustaqil bajardim. Tanlagan model uchun gazlama tanlashda gazlamaning gigiyenik va estetik talablarini inobatga olib gazlama tanlash jarayonini amalgam oshirdim.

Kiyimni sifatli ishlab chiqarish uchun tikuv mashina jixozlaridan, dazmol, presslar zamonaviy tikuv mashinalarini tanlab oldim. Zamonaviy tikuv mashinalarida nafaqat zifatli qolaversa mexnat unumdorligini oshirishda katta axamiyatt beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. SH.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston" 2017 yil.
2. SH.Mirziyoev O'zbekistonning 2016-yildagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish yakunlarini muhokama etish va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlari. Vazirlar Mahkamasi kengaytirilgan yig'ilishi. 2017 yil 14 yanvar
3. SH.Mirziyoev O'zbekistonning 2016-yildagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish yakunlarini muhokama etish va 2017yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlari. Vazirlar Mahkamasi kengaytirilgan yig'ilishi. 2017 yil 14 yanvar
4. "Tikuvchilik materialshunosligi" E. P. Maltva Toshkent 1986-yil.
- 5 .K.T Olimov , R. Olimov ,R.M . Rustamov, R. X. Nurboyev, L. P Uzoqova "Tikuvchilik mashinalari" Toshkent 2002 y.